

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha Ye-polis (yelektron polis)ni onlayn ro'yxatdan o'tkazish shartlariga muvofiq OMMAVIY OFERTA

Ushbu ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda - Oferta) «MY-INSURANCE» Aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda - Sug'urtalovchi) bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish (keyingi o'rinlarda - TVEFJMSQ) bo'yicha Ye-polisni (elektron polisni) onlayn rasmiylashtirish (shartnoma tuzish va bekor qilish) tartiblari va sug'urtalash shartlarini belgilaydi.

Mazkur oferta O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Elektron tijorat to'g'risida» gi, «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» gi, «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda 780-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha Ye-polisni sotish, rasmiylashtirish va ularning haqiqiylikini tekshirish» qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141- sonli qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish» qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

I. Umumiy shartlar va tushunchalar

1. Ushbu ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Ye-polis - transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha elektron shaklda tuzilgan sug'urta shartnomasi;

Sug'urta hodisasi - Ye-polisga ko'ra transport vositasidan foydalanishda jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan, sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini amalga oshirishiga sabab bo'ladigan zarar bo'yicha javobgarligi sug'urta qilingan, sug'urta qildiruvchi yoki boshqa shaxsning fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi;

Sug'urta puli - sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda yetkazilgan zararining o'rnini uning doirasida jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquqiy vorisiga) qoplash majburiyatini oladi;

Sug'urta mukofoti - sug'urta qildiruvchi Ye-polisni sotib olish uchun sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi;

Sug'urta tovon - sug'urtalovchi Ye-polisga muvofiq sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchiga uning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash hisobiga sug'urta puli doirasida to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi;

Yagona axborot tizimi - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan, majburiy sug'urta qilish bo'yicha onlayn tartibida faoliyat yurituvchi yagona axborot tizimi;

Transport vositasining egasining yaqin qarindoshlari - transport vositasi egasining transport vositasidan foydalanish va uni boshqarish uchun notarial tasdiqlanadigan ishonchnoma rasmiylashtirilishi talab qilinmaydigan yaqin qarindoshlari (**ota-ona, er (xotin), bolalar, aka- ukalar, opa-singillar**).

Rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish - sug'urta qildiruvchining undan foydalanishga qaratilgan har qanday harakati.

2. Ofertaning amal qilish hududi - O'zbekiston Respublikasi.

3. Xorijiy davlatlarda ruyxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik foydalanilayotgan transport vositalarining egalari mazkur oferta tarafi bo'lishi mumkin emas.

4. Rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishda dastavval, Sug'urta qildiruvchi ushbu oferta shartlari bilan to'liq tanishib chiqishi lozim. Agar Sug'urta qildiruvchi oferta shartlariga yoki uning ba'zi qismlariga rozi bo'lmasa, u rasmiy veb-sayt yoki mobil ilovadan foydalanishni to'xtatishi lozim. Sug'urta qildiruvchining rasmiy veb sayt yoki mobil ilovadan foydalanishni davom ettirishi ushbu oferta shartlariga to'liq va so'zsiz rozi ekanligini bildiradi.

II. Ye-polisni rasmiylashtirish

5. Ye-polisni rasmiylashtirish sug'urtalovchi rasmiy veb-saytining majburiy sug'urta uchun

mo'ljallangan qismi yoki uning mobil ilovasi, telegram-bot va/yoki elektron to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi.

6. Ye-polisni rasmiylashtirish uchun sug'urta qildiruvchi har bir transport vositasi bo'yicha Ye-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

sug'urta qildiruvchining va/yoki transport vositasini boshqarishga vakolat berilgan jismoniy shaxslarning (transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslarga ruxsat berilishi sharti bilan Ye-polis rasmiylashtirilgan taqdirda) shaxsiy identifikatsiya raqamini va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi, raqami;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (yuridik shaxs uchun);

transport vositasi egasining shaxsiy identifikatsiya raqami va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami (agar transport vositasi mulkdori boshqa jismoniy shaxs bo'lsa);

elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa); mobil telefon raqami;

Ye-polis rasmiylashtirilayotgan transport vositasining davlat raqami belgisi va ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning seriyasi va raqami;

agar sug'urta qildiruvchi qonunchilikka asosan siylov olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifasiga kirsam, majburiy sug'urta bo'yicha siylovlar mavjudligi to'g'risida belgi qo'yib, yuqoridagi toifaga tegishlilikni tasdiqlovchi hujjatlarning (guvohnoma, ma'lumotnoma) tegishli raqamlari;

transport vositasi egasining ixtiyori bilan mazkur transport vositasidan foydalanish va uni boshqarishga qo'yilgan yaqin qarindoshlarining (ota, ona, er (xotin), o'g'il, qiz, aka, uka, opa, singil) qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli raqamlari;

transport vositasining ro'yxatdan o'tgan joyi;

sug'urta muddati (1 yil, 6 oy yoki undan ortiq (TVdan mavsumiy foydalanishda), 10 kun yoki undan ortiq (ro'yxatdan o'tish joyigacha);

Ye-polis rasmiylashtirilganligi to'g'risidagi xabarnomani yuborish shakli (telefon raqam yoki elektron pochta manzili yoki sug'urtalovchi veb-saytida (mobil ilovasi orqali) ochilgan shaxsiy kabineti orqali).

Bunda tegishli ma'lumotlar yagona axborot tizimida mavjud bo'lganda avtomatik tarzda to'ldiriladi.

7. Elektron ariza to'ldirilayotgan vaqtda Yagona axborot tizimi qisman yoki to'liq ishlamaganda, ya'ni davlat axborot bazalari qisman ishlamagan va/yoki ular bilan aloqa uzilgan taqdirda, sug'urta qildiruvchi arizadagi qolgan ma'lumotlarni qo'lda kiritadi yoki xujjatlarni ilova qiladi.

8. Elektron ariza to'liq to'ldirilgandan so'ng sug'urta qildiruvchi tomonidan yuborish tugmasi bosiladi.

9. Sug'urtalovchining ma'sul xodimlari tomonidan yuborilgan elektron arizidagi ma'lumotlar bir ish kuni ichida to'liqligi va to'g'riligi tekshirilib, sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotini to'lashi mumkinligi yoki ma'lumotlarni qayta to'g'irlanishi to'g'risida xabarnoma yuboriladi. Agar sug'urta qildiruvchi tomonidan ariza berilgan sanadan boshlab 24 soat davomida ma'lumotlar qayta tekshirilmasa va/yoki to'g'rilanmasa, unda sug'urta tashkiloti Ye-polisni rasmiylashtirish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilish imkoniyati yo'qligi to'g'risida sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi resursi yoki SMS - xabar orqali sug'urta tashkiloti sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi

10. Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lashi mumkinligi to'g'risidagi xabarnomani olgandan so'ng 24 soat mobaynida sug'urta mukofotini elektron to'lov tizimlari orqali, naqd pulda, pul o'tkazish yo'li bilan (yuridik shaxslar) to'lashi lozim.

Sug'urta mukofoti Ye-polisda nazarda tutilgan to'lovdan kamroq miqdorda to'langan bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta mukofotining to'lanmagan qismi, sug'urta qildiruvchi tomonidan 72 soat muddatda to'lanishi zarurligi to'g'risida darhol xabarnoma yuboradi.

11. Sug'urta mukofoti to'langanligi fakti ushbu Oferta Sug'urta qildiruvchi tomonidan aksept qilinganligini anglatadi.

12. Ye-polis Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta mukofoti to'langan paytdan kuchga kiradi. Agar Ye-polisda sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiy sug'urta elektron shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

13. Sug'urta mukofoti to'liq to'langandan keyin Ye-polis rasmiylashtirilganligi to'g'risidagi xabarnoma sug'urta qildiruvchi tomonidan tanlangan shaklda yuboriladi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

sug'urta tashkilotining nomi;
transport vositasi rusumi va davlat raqami belgisi; sug'urta mukofoti miqdori;
Ye-polisning amal qilish muddati; Ye-polisning noyob raqami;
Yagona axborot tizimiga havola.

14. Sug'urta qildiruvchi Yagona axborot tizimiga havola orqali o'tib, Ye-polisni yuklab olishi mumkin.

15. SUG'URTA QILDIRUVCHI O'ZI TOMONIDAN ELEKTRON POLISNI RASMIYLASHTIRISH UCHUN SUG'URTALOVCHIGA TAQDIM ETILAYOTGAN MA'LUMOTLAR VA HUJJATLARNING HAQIQIYLIGI UCHUN JAVOBGAR HISOBLANADI.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

16. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtalovchidan Ye-polis to'g'risida tushuntirish berishni talab qilish; rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan istalgan paytda foydalanishni to'xtatish. majburiy sug'urtani amalga oshiruvchi sug'urtalovchini tanlash.

Sug'urta qildiruvchi:

belgilangan tartibda va muddatda Ye-polis bo'yicha o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarishi;
Ye-polis bo'yicha sug'urta mukofotini belgilangan shartlar asosida va tartibda to'lashi shart.

17. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

jabrlanuvchi (uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislari)ning arizasini ko'rib chiqishda tegishli ekspertlarni jalb etish;

sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotlarni tekshirish, sug'urta shartnomasi talablari va shartlarining sug'urta qildiruvchi tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

sug'urta hodisalari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish.

qonunda belgilangan holatlarda to'langan sug'urta tovonini regress tartibida to'lab berilishini talab qilish;

Sug'urtalovchi:

sug'urta qildiruvchiga internet-resursidan tunu kun to'siqlarsiz foydalana olish imkoniyatini yaratishi;

sug'urta qildiruvchining va (yoki) jabrlanuvchining sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini to'lab berishni so'rab sug'urtalovchiga qilgan murojaatini ko'rib chiqishi;

o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyiligi ta'minlashi shart.

18. Rasmiy veb sayt yoki ilovadan foydalanish imkoniyati faqatgina Internet jahon axborot tarmog'iga kirish imkoni bo'lgandagina vujudga keladi. Shu sababli, sug'urta qildiruvchi Internetga belgilangan tartibda ulanish choralarini mustaqil ko'rishi lozim.

19. Sug'urtalovchi quyidagi zararlar uchun javobgar emas:

sug'urta qildiruvchi oldida rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq zararlar uchun;

rasmiy veb-sayt va mobil ilovadagi ma'lumotlar sug'urta qildiruvchi tomonidan uchinchi shaxlarga berilishi oqibatlarini uchun;

sug'urtalovchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalan olmaganligi va xizmatlar ko'rsatilmaganligi uchun.

20. Jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini to'lab berishni so'rab sug'urtalovchiga murojaat qilish;
sug'urtalovchining sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish.

qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini olish.

IV. Ye-polisni o'zgartirish va muddatidan oldin tugatish

21. Ye-polisni amal qilish muddati quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatiladi:

- transport vositasidan foydalanish belgilangan tartibda taqiqlanganda;
- Ye-polisda ko'rsatilgan transport vositasi bundan buyon foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib

qolganda;

- transport vositasining mulkdori o'zgarganda.

22. Transport vositasining egasi o'zgarishi yoki transport vositasidan foydalanish belgilangan tartibda taqiqlanishi yoxud u bundan buyongi foydalanish uchun yaroqsiz holatda ekanligi sababli majburiy sug'urta shartnomasining amal qilishi muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, sug'urta mukofotining bir qismi to'langan sug'urta to'voni summasiga va majburiy sug'urta to'g'risidagi shartnomaning qolgan amal qilish muddati kunlariga mutanosib summada sug'urta qildiruvchiga qaytariladi.

Majburiy sug'urta shartnomasining amal qilishi ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganidan boshqa asoslarga ko'ra muddatidan ilgari tugatilganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining qaytariladigan qismidan mazkur majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha o'zining isbotlanadigan xarajatlari summasini sug'urta mukofotining 25 foizidan oshmagan miqdorda chegirib qolishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasining "transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi qonuni, 12-modda.)

23. Sug'urta qildiruvchiga (uning qonuniy vakillariga, merosxo'rlariga, huquqiy vorislariga) sug'urta mukofotining bir qismini qaytarish sug'urta qildiruvchi (uning qonuniy vakillari, merosxo'rlari, huquqiy vorislari) tegishli tartibda murojaat qilgan kundan boshlab 14 kalendar kun mobaynida amalga oshiriladi.

Bunda sug'urta qildiruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta qildiruvchining arizasiga muvofiq yangi rasmiylashtirilgan Ye-polis bo'yicha sug'urta mukofoti hisobiga o'tkazilishi mumkin.

V. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda shaxslarning harakatlari

24. Jabrlanuvchilarga zarar yetkazilishiga olib kelgan yo'l-transport hodisasi (YTH) ishtirokchisi bo'lgan sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi Ye-polisga muvofiq sug'urtalangan boshqa shaxs) jabrlanuvchi(lar)ning talabiga ko'ra unga TVEFJMSQ bo'yicha Ye-polisi to'g'risida ma'lumot berishi zarur.

25. Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

jabrlanuvchiga YTH kundan boshlab uch kalendar kundan kechiktirmay sug'urta polisining nusxasini topshirishi;

darhol, YTHdan keyin 72 soatdan kechiktirmay, sodir bo'lgan hodisa haqida sug'urta polisining nusxasini ilova qilgan holda sug'urtalovchiga murojaat qilishi;

sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi munosabati bilan unga nisbatan qo'yilayotgan barcha talablar xabardor qiladi.

VI. Sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini to'lash

26. Ye-polis bo'yicha jabrlanuvchi yoki sug'urta qildiruvchining xohishiga binoan (sug'urta hodisasini to'g'ridan-to'g'ri hal etish hollarida) sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida bildirishnoma yuborish, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash, sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141-son qarori bilan tasdiqlangan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish Qoidalarida belgilangan hujjatlarning elektron yoki skanerlangan nusxalarini sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi resursidagi jabrlanuvchi yoki sug'urta qildiruvchining (sug'urta hodisasini to'g'ridan-to'g'ri hal etish hollarida) sug'urta tashkilotiga yuborishga haqli.

27. Agar sug'urta hodisasi ro'y berganligini va sug'urta qildiruvchi tomonidan yetkazilgan zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar yetarli bo'lmasa, sug'urtalovchi bu to'g'risida ushbu hujjatlar olingan kundan boshlab uch ish kuni ichida, yetishmayotgan va (yoki) noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarning to'liq ro'yxatini ko'rsatgan holda jabrlanuvchi yoki sug'urta qildiruvchining (sug'urta hodisasini to'g'ridan-to'g'ri hal etish hollarida) elektron pochta manziliga (mavjud bo'lsa) va (yoki) ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabar orqali ma'lumot yuborishi kerak.

28. Taqdim etilgan hujjatlarning to'liq ro'yxati va qabul qilingan sanasi to'g'risida elektron ma'lumotnoma ariza beruvchiga, u ko'rsatgan elektron pochta manziliga (agar mavjud bo'lsa) yuboriladi va (yoki) sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi resursidagi ariza beruvchining shaxsiy kabinetida ko'rsatiladi.

VII. Sug'urta summasi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi va (yoki) tovonini

miqdori

29. TVEFJMSQ bo'yicha sug'urta summasi 80 000 000 (cakson million) so'mni tashkil etadi. Shundan:

- jabrlanuvchining mol-mulkiga zarar yetkazilganda sug'urta to'lovi sug'urta summasining 35 foizi – 28 000 000 (yigirma sakkiz million) so'm;
- jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda sug'urta tovonining miqdori sug'urta pulining 65 foizi - 52 000 000 (ellik ikki million) so'm.

30. Sug'urta qildiruvchi tomonidan TVEFJMSQ bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofoti miqdori 1 (bir)* yil muddat uchun quyidagi ko'rinishda:

TV turi	Hudud			
	Toshkent shahar va Toshkent viloyati**		Boshqa viloyatlar**	
	Cheklangan *** (so'mda)	Cheklanmagan **** (so'mda)	Cheklangan *** (so'mda)	Cheklanmagan **** (so'mda)
Yengil	192 0	384 0	160 0	320 0
Yuk	336 0	672 0	280 0	560 0
Avtobuslar va mikroavtobuslar	384 0	768 0	280 0	640 0
Tramvaylar, mototsikllar va motorollyorlar, traktorlar, o'ziyurar yo'l-qurilish mashinalari va boshqa mashinalar	72 0	144 0	60 0	120 0

* Elektron arizada sug'urta muddati 6 oy yoki ro'yxatdan o'tkazish joyigacha katakchalarini tanlanganda sug'urta mukofoti jadvalda ko'rsatilgan summadan kamroq miqdorda elektron arizani to'ldirish jarayonida sug'urta qildiruvchiga ma'lum qilinadi.

**TV ro'yxatdan utgan hudud.

*** TVdan haydovchilar soni cheklangan holda foydalanish sharti bilan rasmiylashtirilganda.

**** TVdan haydovchilar soni cheklanmagan holda foydalanish sharti bilan rasmiylashtirilganda.

31. Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotining miqdori Ye-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga kiritilgan ma'lumotlarga muvofiq, shuningdek siylov huquqini hisobga olgan holda aniqlanadi.

VIII. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash shartlari

32. Sug'urta qildiruvchi Ye-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga ma'lumotlarni kiritishi bilan Ye-polisni amalga oshirish uchun o'zining shaxsiga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga (yig'ish, yozish, tizimlash, saqlash, foydalanish va bekor qilish) rozilik bergan deb xisoblanadi.

33. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi 2019 yil 2 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

IX. Yakunlovchi qoidalar

34. Ushbu ofertaning talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar. 35 Ushbu ofertada nazarda tutilgan yoki u bilan bog'liq masalalar bo'yicha taraflar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, taraflar kelishmovchilikni sudgacha hal etish choralarini ko'rishi lozim.

36 Nizoni sudgacha hal etish imkoni bo'lmasa, ular sug'urtalovchi joylashgan yerdagi tegishli sudga O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga asosan hal etiladi.

37 Ushbu ofertada nazarda tutilmagan holatlar bo'yicha vujudga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА

по условиям онлайн-оформления Е-полиса (электронного полиса) по обязательному страхованию гражданской ответственности владельцев транспортных средств

Настоящая публичная oferta (далее – oferta) устанавливает порядок онлайн-оформления Е-полиса (электронного полиса) (заключения и расторжения договора) и условия страхования по обязательному страхованию гражданской ответственности владельцев транспортных средств (далее – ОСГОВТС) между страховой компанией АО «MY-INSURANCE» (далее – страховщик) и страхователем.

Настоящая oferta разработана на основании Гражданского кодекса Республики Узбекистан, Законов Республики Узбекистан «Об электронной коммерции», «Об электронном документообороте», «О страховой деятельности», Правил реализации, оформления Е-полиса и проверки их достоверности, утвержденного постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 декабря 2020 года №780 «О дополнительных мерах по совершенствованию порядка оказания электронных страховых услуг», и Правил обязательного страхования гражданской ответственности владельцев транспортных средств, утвержденного постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 июня 2008 года №141.

I. Общие положения и основные понятия

1. В настоящей ofercie используются следующие основные понятия:

Е-полис – договор страхования по обязательному страхованию гражданской ответственности владельцев транспортных средств, составленный в электронной форме;

Страховой случай – наступление гражданской ответственности страхователя или иного лица, ответственность которых застрахована по Е-полису за причинение вреда жизни, здоровью и (или) имуществу потерпевшего при использовании транспортного средства, которое влечет за собой обязанность страховщика произвести страховое возмещение;

Страховая сумма – сумма денежных средств, в пределах которой Страховщик обязуется возместить причиненный ущерб пострадавшему (его наследнику или правопреемнику) при наступлении страхового случая;

Страховая премия – сумма денежных средств, которую страхователь обязан уплатить страховщику для покупки Е-полиса;

Страховое возмещение – сумма денежных средств, которую Страховщик обязуется уплатить в пределах страховой суммы в счет возмещения вреда жизни, здоровью и (или) имуществу потерпевшего при наступлении страхового случая по Е-полису;

Единая информационная система – единая информационная система по обязательному страхованию, функционирующая в онлайн-режиме, интегрированная информационными системами и центральными базами данных Министерства внутренних дел, внебюджетного Пенсионного фонда при Министерстве финансов Республики Узбекистан, иных заинтересованных министерств и ведомств, центральными базами данных физических и юридических лиц;

Близкие родственники владельца транспортного средства – близкие родственники (родители, супруг (супруга), дети, братья, сестры) владельца транспортного средства, которым не требуется оформление нотариально удостоверяемой доверенности за пользование и управление транспортным средством;

Пользование официальным веб-сайтом и мобильным приложением – любое действие страхователя направленное на пользование им.

2. Территория действия оферты – Республика Узбекистан.
 3. Владельцы транспортных средств, зарегистрированных в иностранных государствах и временно используемых на территории Республики Узбекистан, не могут быть стороной данной оферты.
 4. При пользовании официальным веб-сайтом и мобильным приложением Страхователь сначала должен полностью ознакомиться с условиями настоящей оферты. Если Страхователь не согласен с условиями оферты или её некоторыми частями, то должен прекратить пользование официальным веб-сайтом и мобильным приложением.
- Продолжение пользования Страхователя официальным веб-сайтом и мобильным приложением означает полное и безусловное его согласие с условиями настоящей оферты.

II. Оформление Е-полиса

5. Оформление Е-полиса осуществляется через часть официального веб-сайта, предусмотренную для обязательного страхования, или его мобильное приложение, телеграм-бот и/или электронную платежную систему.

6. Для оформления Е-полиса страхователь включает в электронное заявление об оформлении Е-полиса по каждому транспортному средству следующие сведения:

личный идентификационный номер и серия, номер документа, удостоверяющий личность страхователя и/или физических лиц, допущенных к управлению транспортным средством (в случае, если Е-полис оформляется с условием, что к управлению транспортным средством допускаются только определенные лица);

идентификационный номер налогоплательщика (для юридических лиц);

личный идентификационный номер и серия и номер документа, удостоверяющий личность, владельца транспортного средства (в случае, если собственником транспортного средства является другое физическое лицо);

если страхователь в соответствии с законодательством относится к категории лиц, имеющих право на получение скидки по страховой премии, соответствующие номера документов (удостоверение, справка), удостоверяющих причастность страхователя к вышеназванной категории с проставлением знака о наличии скидок по обязательному страхованию;

номер мобильного телефона;

государственный регистрационный номер, серия и номер свидетельства о государственной регистрации транспортного средства, на которого оформляется Е-полис;

соответствующие номера документов, подтверждающих степень родства близких родственников (родители, супруг (супруга), сын, дочь, братья, сёстры), допущенных пользованию и управлению транспортным средством;

место регистрации транспортного средства;

срок страхования (1 год, 10 или более дней (до места регистрации);

форма отправления уведомления об оформлении Е-полиса (номер телефона или адрес электронной почты или через личный кабинет открытого на веб-сайте страховщика (через мобильное приложение)).

При этом соответствующие сведения при наличии в единой информационной системе заполняются автоматически.

7. В случае частичного или полного не функционирования Единой информационной системы во время заполнения электронного заявления, то есть в случае не

функционирования государственных информационных баз данных и/или отсутствия связи с ними, страхователь вносит оставшиеся сведения вручную или прилагает документы.

8. После полного заполнения электронного заявления страхователем нажимается кнопка отправки.

9. Сведения, отправленные в электронном заявлении, проверяются ответственными работниками страховщика в течение одного рабочего дня на предмет их полноты и правильности, после чего отправляется уведомление о возможности оплаты страховой премии или повторной отправки исправленных сведений. В случае если страхователем в течение 24 часов с даты подачи заявления не будет осуществлена повторная проверка и/или исправление сведений, тогда страховая организация уведомляет страхователя через свой ресурс во всемирной сети Интернет или SMS-сообщения об отсутствии возможности оформления, переоформления и расторжения Е-полиса.

10. Страхователь после получения уведомления о возможности оплаты страховой премии в течение 24 часов должен уплатить страховую премию через электронные платежные системы, путем наличной оплаты или перечисления (юридические лица).

В случае, если страховая премия оплачена в меньшем размере, чем предусмотренном в Е-полисе, страховая организация немедленно направляет уведомление о необходимости уплаты Страхователем в течение 72 часов недостающей части страховой премии.

11. Факт оплаты страховой премии означает акцепт настоящей Оферты Страхователем.

12. Е-полис вступает в силу с момента оплаты Страховой премии Страхователем. Страхование распространяется на страховые случаи, произошедшие после вступления в силу электронного договора обязательного страхования, если в Е-полисе не предусмотрен иной срок начало действия страхования.

13. После оплаты страховой премии в полном размере уведомление об оформлении Е-полиса направляется в форме выбранной Страхователем, и оно включает в себя:

- наименование страховой организации;
- марка и государственный номерной знак транспортного средства;
- размер страховой премии;
- срок действия Е-полиса;
- уникальный номер Е-полис;
- ссылка на Единую информационную систему.

14. Страхователь может загрузить Е-полис, пройдя через ссылку на Единую информационную систему.

15. СТРАХОВАТЕЛЬ ЯВЛЯЕТСЯ ОТВЕТСТВЕННЫМ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ ИМ СТРАХОВЩИКУ СВЕДЕНИЙ И ДОКУМЕНТОВ ДЛЯ ОФОРМЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ПОЛИСА.

III. Права и обязанности сторон

16. Страхователь имеет право:

- потребовать у Страховщика разъяснений по Е-полису;
- прекратить в любое время пользование официальным веб-сайтом и мобильным приложением;

- выбрать Страховщика, осуществляющего деятельность по обязательному страхованию.

Страхователь обязан:

- выполнить в установленном порядке и сроках возложенное на него обязательства по

Е-полису;

оплатить страховую премию по Е-полису в установленном порядке и условиях.

17. Страховщик имеет право:

привлекать соответствующих экспертов при рассмотрении заявления пострадавшего (его наследников или правопреемников);

проверять предоставленную страхователем информацию, контролировать выполнение требований и условий договора страхования;

давать рекомендации по предотвращению наступления страховых случаев;

требовать возврата в регрессном порядке выплаченное страховое возмещение, в случаях установленном законодательством.

Страховщик обязан:

создать условия страхователю возможность круглосуточного беспрепятственного пользования своего Интернет-ресурса;

рассмотреть обращение страхователя и (или) потерпевшего произвести страховую выплату и (или) выплату страхового возмещения;

обязан обеспечить конфиденциальность сведений о страхователе и потерпевшем, полученных при осуществлении своей деятельности.

18. Возможность пользования официальным веб-сайтом или мобильным приложением осуществляется только при возможности подключения всемирной информационной сети Интернет. Поэтому страхователь должен самостоятельно принять меры по подключению к Интернету в установленном порядке.

19. Страховщик не несет ответственность за:

убытки страхователя, связанные с использованием официального веб-сайта и мобильного приложения;

последствия передачи страхователем сведений на официальном веб-сайте и мобильном приложении третьим лицам;

неоказание услуг в связи невозможностью использования официального веб-сайта и мобильного приложения по причинам независящих от страховщика.

20. Потерпевший имеет право:

Обратиться к страховщику произвести страховую выплату и (или) выплату страхового возмещения;

обжаловать в суде решение страховщика об отказе произвести страховую выплату и (или) возмещение;

получить страховую выплату и (или) возмещение на основании условий, установленных законодательством.

IV. Досрочное прекращение Е-полиса

21. Срок действия Е-полиса прекращается досрочно в следующих случаях:

- запрещения в установленном порядке пользование транспортным средством;
- негодности в дальнейшем для пользования транспортного средства, указанного в Е-полисе;

- изменения собственника транспортного средства.

22. В случае досрочного прекращения действия Е-полиса в связи со сменой владельца ТС или частичной или полной гибели ТС часть страховой премии возвращается пропорционально выплаченной сумме возмещения и количеству дней не истекшего периода действия Е-полиса.

В случае досрочного прекращения действия договора обязательного страхования по иным, чем указанные в первой части настоящего пункта, основаниям страховщик из

возвращаемой части страховой премии может вычесть сумму его доказуемых расходов по данному договору обязательного страхования в размере не более 25 процентов от страховой премии. (Закон Республики Узбекистан «Об обязательном страховании гражданской ответственности владельцев транспортных средств», Статья 12.)

23. Возвращение части страховой премии страхователю (его законным представителям, наследникам, правопреемникам) осуществляется в течение 14 календарных дней со дня обращения в установленном порядке страхователя (его законных представителей, наследников, правопреемников).

При этом подлежащая возврату часть страховой премии по заявлению страхователя может быть переведена в счет страховой премии по вновь оформляемого Е-полиса.

V. Действия лиц при наступлении страхового случая

24. Страхователь (иное лицо, гражданская ответственность которого застрахована в соответствии с Е-полисом), являющимся участником дорожно-транспортного происшествия (ДТП), приведшего причинению вреда потерпевшим, по требованию потерпевшего(их) должен сообщить ему (им) сведения об Е-полисе по ОСГОВТС.

25. Страхователь при наступлении страхового случая должен осуществить следующее:

вручить пострадавшему копию страхового полиса в течение трех календарных дней со дня ДТП;

немедленно, не позднее 72 часов после ДТП, обратиться страховщику о происшедшем событии с приложением копии страхового полиса;

сообщить страховщику о всех предъявляемых к нему требованиях в связи со страховым случаем.

VI. Страховая выплата и (или) выплата страхового возмещения

26. Потерпевший или страхователь (при прямом урегулировании страхового случая) имеет право направить уведомление о наступлении страхового случая, определение о размере причиненного вреда, электронные или сканированные копии документов, для осуществления страховых выплат, определенных в Правилах обязательного страхования гражданской ответственности владельцев транспортных средств, утвержденного постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 июня 2008 года №141, в Интернет ресурс страховщика потерпевшего (при прямом урегулировании страхового случая) или интернет ресурс страховой организации страхователя.

27. Если документы, подтверждающие наступления страхового случая и размер причиненного страхователем вреда, являются недостаточными, то страховщик со дня получения этих документов в течение трех рабочих дней должен направить информацию об этом на электронный почтовый адрес (если имеется) и (или) SMS-сообщением на указанный телефонный номер пострадавшего или страхователя с указанием полного перечня недостающих и (или) неправильно оформленных документов.

28. Электронная справка о полном перечне представленных документов и дате приема направляется заявителю по указанному им адресу электронной почты (если имеется) и (или) указывается в личном кабинете заявителя в ресурсе всемирной информационной сети Интернет.

VII. Страховая сумма, страховая премия, размер страховой выплаты и (или) возмещения

29. Страховая сумма по ОСГОВТС составляет 80 000 000 (восемьдесят миллионов) сумов.

Из них:

- при причинении вреда имуществу пострадавшего страховая выплата составляет 35 процентов от страховой суммы – 28 000 000 (двадцать восемь

миллионов) сумов;

- при причинении вреда жизни или здоровью пострадавшего страховая выплата составляет 65 процентов от страховой суммы – 52 000 000 (пятьдесят два миллиона) сумов.

30. Страховая премия по ОСГОВТС выплачивается Страхователем сроком на 1 (один)* год в следующем размере:

Вид ТС	Территория			
	Город Ташкент и Ташкентская область**		Другие области**	
	Ограни- ченный* ** (в сумах)	Неограни- ченный** ** (в сумах)	Ограни- ченный*** (в сумах)	Неограни- ченный**** (в сумах)
Легковое	192 000	384 000	160 000	320 000
Грузовое	336 000	672 000	280 000	560 000
Автобусы и микроавтобусы	384 000	768 000	280 000	640 000
Трамваи, мотоциклы и мотороллеры, тракторы, самоходные дорожно-строительные машины и другие машины	72 000	144 000	60 000	120 000

* При выборе в электронном заявлении графы срока страхования 6 месяцев или до места регистрации страховая премия объявляется в процессе заполнения электронного заявления страхователю в меньшем размере, чем от суммы указанном в таблице.

** Территория, где зарегистрировано ТС.

*** При оформлении с условием использования ТС ограниченным количеством водителей.

**** При оформлении с условием использования ТС неограниченным количеством водителей.

31. Размер страховой премии, подлежащей выплате Страхователем, определяется в соответствие с данными внесенными в электронное заявление об оформлении Е-полиса, а также с учетом права на скидку.

VIII. Условия обработки персональных данных

32. Внесение Страхователем данных в электронное заявление об оформлении Е-полиса считается его согласием на обработку своих персональных данных (сбор, запись, систематизацию, хранение, использование и отмену персональных данных).

33. Обработка персональных данных в целях выполнения Страховщиком обязательств по договору страхования осуществляется в соответствие с Законом Республики Узбекистан «О персональных данных» от 2 июля 2019 года.

IX. Заключительные положения

34. Лица, виновные в нарушении требований настоящей оферты, несут

ответственность в установленном законодательстве порядке.

35. В случае возникновения разногласий между сторонами по вопросам, предусмотренным настоящей офертой или связанным с ней, стороны должны принять меры досудебного разрешения их.

36. При невозможности разрешения споров до суда, они подлежат разрешению в суде в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

37. Споры, возникшие по случаям, не предусмотренным в настоящей оферте, разрешаются в порядке, установленном законодательством.